



O'ZBEK DEMOKRATIK ADABIYOTIDA HAQQAT MANZARALARI VA
TILGA DOIR BA'ZI MASALALAR

Rushana Zaripova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

O'zbek demokratik adabiyotining tug'ilishi va kelib chiqishi xalqning turmush sharoiti, uning ma'naviy olami bilan bog'liq. Shuning uchun demokratik adabiyotning mohiyatini xalqchilik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari tashkil etadi. O'zbek demokratik shoirlari ijodiga, ular yaratgan muhim asarlarga nazar tashlasak, ular yashagan davr hayoti manzarasini haqqoniy tasvirlanganini, chuqur xalqchilik ruhi bilan sug'orilganining guvohi bo'lamiz.

Xalqni chuqur muhabbat bilan sevgan, uning manfaati uchun umrining oxirigacha sodiq qolgan kishilargina haqiqiy vatanparvarlar bo'lishi mumkin. Mana shunday vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarannum etgan ijodkorlarni esa demokratik shoirlar deb ataymiz. Ahmad Donish, Komil Xorazmiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin, Zavqiy, Muqimiy, Avaz O'tar, Furqat va boshqalar. Ularning yaratgan lirik asarlari, yumor, satira, xalq hayoti tasviriga bag'ishlangan "Sayohatnoma"larigacha xalq hayoti to'g'ri, haqqoniy aks etadi, xalqning istak-armonlari kuylanadi. O'zbek demokratik adabiyot vakillari ma'rifatparvarlik g'oyalarini, xalq hayoti, istiqboli, taqdiri va uning ozodlikka bo'lgan intilishlarini tarannum etgan. Fikrimning tasdig'ini quyidagi misralarda ko'rishingiz mumkin:

Muqimiy ijodidan:

Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostin,
So'zki haq bo'lsa savoling'a javobim kim desun?!

Avaz O'tar ijodidan:

O'lar holatda ham deb rost so'z holni tabah etgil,
Demasmankim, debon yolg'on nomingni siyoh etgil,
Najoti har balodin istasang, sidqing guvoh etgil.

Zavqiy ijodidan:

Do'zanda kosiblik ishim

El biladur yozim qishim.

Anbar Otin ijodidan:

She'r yozsangiz, xaloyiq holidan mavzu eting,

Ko'p ulug'larni madh etmoq erur bu isrof."¹⁰²

Tutqunlik, zulm va zo'ravonlikka qarshi qalam tebratib, ozodlik va erkinlikning, haqiqat manzaralarining otashin kuychisi Furqatning mashhur "Sayding qo'ya ber sayyod" she'rini ozodlik madhiyasi deb atash mumkin.

Yuqorida nomlari zikr etilgan shoirlar xalqiga hiyonat qilmagan, haqiqat yo'lida sobit tura olgan vatan ma'rifatparvarlari edi.

¹⁰² F. K. Каримов "Ўзбек адабиёти тарихи" Т.: "Ўқитувчи". 1975. 63- бет



Shu o'rinda aytish mumkinki, haqiqiy iste'dod va qobiliyat sohiblari bo'lgan yozuvchi va shoirlargina har qanday muhitda, har qanday sharoitda o'z menini saqlab qola oladi.

Har qanday adabiy til taraqqiyotining darajasi uning xalq tili bilan aloqasida, yaqinligida, unga sayqal berib, rivojlantirishda ko'rinadi. Ya'ni xalq tili boyliklarini egallab, unga jilo berish hamda muntazam ko'rkam tus berib, yuqori pog'onaga ko'tarish kerakdir.

Adabiy tilning xalq jonli tiliga munosabati haqida M. Gorkiy shunday degan: "Tilni xalq yaratadi".¹⁰³ Yana bir rus yozuvchisi A. Tolstoy ham adabiy tilning mohiyati haqida quyidagicha fikr bildirgan: "Adabiy til tartibga solingan va ishlangan tildir, lekin, uning butun qurilishi xalq tili qurilishidan iborat bo'lishi zarur"¹⁰⁴

Demokratik adabiyot tiliga shu nuqtai nazardan qarasaq, uning o'zbek adabiy tili tarixida tutgan o'rni ahamiyatlidir. Buni biz dastavval uning xalq jonli tiliga yaqinlashishida, leksikasida ko'rishimiz mumkin. Har qanday tilning lug'ati birinchi navbatda shu tilning ichki imkoniyatlari hisobiga boyiydi. Turmushda maydonga kelgan yangi tushunchalar yangi so'zlarni yaratadi. Bu yangi so'zlar tilning lug'at boyligiga qo'shiladi. Xalq jonli tili ham adabiy tilning boyishidagi muhim manbalardan biridir. Demokratik adabiyot bu manbadan juda unumli foydalanib, adabiy tilni boyitdi. Demokratik adabiyot namunalari ijodidan bunga juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin. "bo'zchi", "lay", "arava", "iskab topar", "bezgak" va h.k. Bu singari sso'zlar asrlar davomida xalq ichida yashab kelgan aloqa vositasi sifatida ishlatilgandir. Lekin turli saabablar bilan yozuvchilar e'tiboridan chetda qolib, adabiy til sirasiga qo'shilmay kelgan edi. Keng halq tilida ishlatilib kelgan eng oddiy, hayotiy so'zlarga birinchi marta XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan Maxmur, Gulxaniy kabi shoirlar katta etibor berganlar. Maxmurning satiralarida, Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida bunga juda ko'p misol misollar ko'rishimiz.

Demokratik adabiyotning yana bir muhim xususiyati shundaki, ushbu adabiyot namoyondalari ikki tilda ijod qilganlar. Bizga ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda ko'plab shoirlar ikki tilda o'zbek-fors tojik tillarida, ba'zida, uch tilda o'zbek, fors-tojik va arab tillarida ijod etgan. Mumtoz adabiyotimizdagi bu an'anani demokratik shoirlar davom ettirishgan. Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar kabi shoirlar asosan o'zbek tilida ijod qilgan bo'lsalar ham, fors-tojik tilini mukammal bilgan va bu tilda ham mazmunan mukammal asarlar yaratgan. Bu esa o'zbek tili lug'atiga yangi so'zlarning kirib kelishiga xizmat qilgan. E'tibordan chetda qolayotgan jihat shundaki, demokratik adabiyot va uning namoyondalarining hayoti va ijodi shu kungacha to'liq o'rganilmagan.

Mening fikrimcha, o'sha davr muhitini, asarlarini, ijodkorlar hayotini mukammal va yaxshiroq o'rganishga kirishsak, tarixiy va arxaik so'zlar to'planadi. Tilimiz naqadar boy til ekanligini yana bir bor nazariy va amaliy asoslaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. N. Tolstoy. "Polnoye sobraniye sochineniy". Gospolitizdat, Moskva. 1943-1953, tom 13, str. 289.

¹⁰³ M. Горкий. «Адабиёт ҳақида» Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёти нашриёти, Т.: 1962, 96- бет.

¹⁰⁴ А. Н. Толстой. "Полное собрание сочинений". Госполитиздат, Москва. 1943-1953, том 13, стр. 289



2. M. Gorkiy. «Adabiyot haqida» O‘zbekiston Davlat badiiy adabiyoti nashriyoti, T.: 1962, 96- bet.
3. G‘. K. Karimov. “O‘zbek adabiyoti tarixi”. “O‘qituvchi” nashriyoti, T.: 1975, 63-bet.
4. Karimov G‘. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. O‘qituvchi. 1975.
5. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti.- T.: Ma’naviyat, 2004.
6. Jumaxo‘ja Nusratullo. Feruz - madaniyat va san‘at homiysi. –T.: FAN, 1995.
7. Ahmedov S va boshq. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. T. Ma’naviyat. 2013.